

**IIOLARI PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING BOLALARNI TARBIYALASH
VA ULARGA TA'LIM BERISH BORASIDAGI MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK
HUQUQBUZARLIGI BO'YICHA ASOSIY VAZIFALARI.**

Axmadjonova Madina Hamdamboevna

IIV Akademiyasi 2-o'quv kursi, 216-guruh kursanti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash va bartaraf etishdagi asosiy vazifalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur sohadagi amaldagi qonunchilik normalari, profilaktik chora-tadbirlar va ularning samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan.*

Maqolada profilaktika inspektorlarining faoliyatida uchrayotgan muammolar, jumladan, ota-onalarning huquqiy ongi yetarli darajada emasligi, ijtimoiy muhit ta'siri hamda institutsional hamkorlikning kamchiliklari ko'rib chiqiladi. Shu asosda muallif tomonidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *profilaktika inspektori, voyaga yetmaganlar, huquqbuzarlik, ota-ona majburiyatlari, ta'lim, tarbiya, huquqiy ong, profilaktika choralari.*

Respublikamizda aholining tinchlik va osoyishtaligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini turli tajovuzlardan himoya qilish, ayniqsa voyaga yetmaganlar tomonidan yoki ularga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan yuqori samaradorlikka erishish maqsadida vakolatli organlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora tadbirlarning nazorati va ijrosi doimiy ravishda davlat boshqaruv organlarining e'tiborida bo'lib turibdi.

Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan 2025 yil 3 yanvar kuni imzolangan "2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son Qarorda ham bugungi kunda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etiladigan qonunbuzilishlarning asl omillarini o'z vaqtida aniqlash va kompleks chora-tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini yanada oshirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'layotganligi ta'kidlangan.

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv davrida yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash, ularga sifatli ta'lim berish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash

hamda nazorat qilishda ichki ishlar organlari, xususan, profilaktika inspektorlarining o'rnini beqiyosdir.

Ayniqsa, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik holatlari jamiyatda turli salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa o'z navbatida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishda profilaktika inspektorlarining mas'uliyatini yanada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47-moddasi (Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik) ushbu turdagi huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan. Unga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan voyaga yetmagan bolalarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi — bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan o'z bolasini qonunga xilof ravishda diniy ta'lim olishga jalb etish, — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi. Bolalarning majburiy umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishiga ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to'sqinlik qilish — bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi ko'rsatilgan.

Mazkur holat bo'yicha Ma'muriy javobsharlik to'g'risidagi kodeksning 248 moddasi 2-qismi, 4-bandiga ko'ra, II OI lari profilaktika inspektorlari 47-moddaning 1 qismi (ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan voyaga yetmagan bolalarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi) da keltirilgan huquqbuzarlik yuzasidan bayonnoma rasmiylashtirib, huquqbuzarlik sodir etilishiga yo'l qo'ygan shaxslar (ota-onalar yoki ularning o'rnini

bosuvchi shaxslar) ga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solish bilan bog'liq jazo tayinlash vakolati berilgan.

Mazkur normada ifoda etilgan "ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan voyaga yetmagan bolalarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi" degan qoida ma'muriy-huquqiy tartibga solishning muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu normaning mazmuni, avvalo, ota-onalarning farzand tarbiyasi va ta'limiga doir majburiyatlari nafaqat axloqiy yoki ijtimoiy, balki qat'iy huquqiy xarakterga ega ekanligini anglatadi. Bu majburiyatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Oila kodeksi normalarida mustahkamlangan bo'lib, bolaning har tomonlama rivojlanishi davlat va jamiyat manfaatlari bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, mazkur qoidada huquqbuzarlik harakat emas, balki harakatsizlik — ya'ni belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik orqali sodir etiladigan delikt sifatida ifodalangan. Bu esa uning o'ziga xos jihatini belgilaydi, chunki bunda shaxsning faol harakati emas, balki beparvoligi, mas'uliyatsizligi yoki nazoratning yetishmasligi huquqiy bahoga tortiladi. Ota-onalarning bola ustidan zarur darajada nazorat o'rnatmasligi, uning ta'lim jarayonida ishtirok etmasligi, axloqiy tarbiyaga yetarlicha e'tibor bermasligi kabi holatlar mazkur normaning ob'ektiv tomonini tashkil etadi. Shu bilan birga, normaning o'ziga xosligi shundaki, u faqat majburiyatni bajarmaslik bilan cheklanib qolmay, balki bu holatning muayyan salbiy oqibatlarga — jumladan, voyaga yetmagan shaxs tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilishiga olib kelishi bilan bog'lanadi.

Bu yerda "shu jumladan" iborasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u normaning qamrov doirasi keng ekanini anglatadi. Ya'ni, bola tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishi mazkur huquqbuzarlikning faqat bir ko'rinishi bo'lib, ota-onaning majburiyatni bajarmasligi oqibatida boshqa salbiy holatlar ham yuzaga kelishi mumkin. Biroq bolaning huquqbuzarlik sodir etishi holati normani qo'llashda muhim kvalifikatsiyalovchi belgilardan biri sifatida namoyon bo'ladi, chunki bu yerda ota-onaning harakatsizligi bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash talab etiladi. Ilmiy jihatdan bu holat kauzalitet, ya'ni sabab va oqibat o'rtasidagi bog'liqlik sifatida baholanadi va huquqni qo'llash amaliyotida eng murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday holatda bolaning huquqbuzarlik sodir etishi avtomatik ravishda ota-onaning aybi sifatida baholanmaydi, balki ular tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaslik natijasida aynan shu oqibat yuzaga kelganligi isbotlanishi lozim.

Mazkur normaning sub'ektiv tomoni ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u ko'p hollarda ehtiyotsizlik shaklida namoyon bo'ladi. Ya'ni ota-onalar o'z harakatsizligining salbiy oqibatlarini oldindan ko'ra bilmaydi yoki yetarlicha baholamaydi. Ayrim hollarda esa bilvosita qasd shaklida ham namoyon bo'lishi mumkin, ya'ni shaxs bolaning xulq-atvoriga befarq bo'lib, uning kelgusidagi salbiy harakatlariga ongli

ravishda yo'l qo'yadi. Bu esa mazkur normaning tarbiyaviy va profilaktik ahamiyatini yanada oshiradi, chunki u faqat jazolashga emas, balki ota-onalarni o'z majburiyatlarini anglashga va bajarishga undashga qaratilgan.

Amaliyot nuqtai nazaridan qaralganda, ushbu norma qo'llanilishida bir qator murakkabliklar mavjud.

Xususan, "tarbiyalash" tushunchasining aniq huquqiy ta'rifi mavjud emasligi sababli uning mazmuni ko'p hollarda baholanuvchi xarakterga ega bo'lib qolmoqda. Bu esa huquqni qo'llovchi organlar tomonidan turlicha talqinlarga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, sababiy bog'lanishni aniqlash masalasi ham amaliyotda jiddiy qiyinchilik tug'diradi, chunki bolaning xulq-atvoriga nafaqat oila, balki tashqi muhit, tengdoshlar, ta'lim muassasasi va boshqa ijtimoiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur norma ilmiy jihatdan murakkab, ko'p qirrali va kompleks xarakterga ega bo'lib, u oila huquqi, ma'muriy huquq va ijtimoiy pedagogika kesishmasida joylashgan huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Uning samarali qo'llanilishi esa faqat huquqiy mexanizmlar bilan emas, balki profilaktika, ijtimoiy yordam va huquqiy ma'rifatni oshirish kabi omillar bilan bevosita bog'liqdir.

Amaliyotda bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish majburiyatlarini bajarmaslik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar xavfini o'z vaqtida aniqlash va oldini olish profilaktika inspektorlari faoliyatida markaziy o'rinni egallaydi. Biroq amaliyotda mazkur funksiyani samarali amalga oshirishda bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklarni oldini olishdagi g'oyasini amaliyotga to'liq tatbiq etish imkonini cheklab qo'yadi.

Birinchi navbatda, profilaktika inspektorlarining erta profilaktikani amalga oshirish imkoniyatlari qoniqarsiz darajada, chunki ular ko'pincha faqat kuzatuvchi sifatida faoliyat yuritadi va bolaning ijtimoiy holati, oilaviy muhiti hamda ta'lim bilan bog'liq muammolarni kompleks tahlil qilishga vaqt va resurs yo'qligi bilan to'la tanaffus qiladilar.

Ilmiy-amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, profilaktika inspektorlari faqat huquqbuzarlik sodir bo'lganidan keyin emas, balki bolalarning huquqbuzarlikka moyil xavf omillarini aniqlash orqali samarali profilaktika ishlarini olib borishi kerak, chunki profilaktikaning natijasi faqat natijaga emas, sabablarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Amaliyotda uchraydigan yana bir muammo — profilaktika inspektorlarining faqat yuridik nazorat funksiyasi bilan cheklanib qolishi, ijtimoiy va psixologik jihatlarga e'tibor kam bo'lishi.

Bu holat bolaning huquqbuzarlikqa moyil bo'lishini faqat huquqiy nuqtai nazardan baholashga olib keladi, amalda esa psixologik yordam, ijtimoiy ko'mak, hatto maktab muhiti bilan hamkorlik kabi muhim omillar nazardan chetda qoladi.

Shu bois profilaktika inspektorlari nafaqat huquqiy munosabatlarda, balki ijtimoiy bo'yicha ham bilim va ko'nikmalarni oshirishi kerak, bola psixologik holati va

uning maktabdagi, jamoadagi bilan bog'liq muammolarni kompleks tahlil qilishga asoslangan profilaktik tadbirlarni ishlab chiqishi zarur.

Shu bilan birga, amaliyotda profilaktika inspektorlari bilan boshqa ijtimoiy xizmatlar, maktab mutaxassislari va mahalla tuzilmalari o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmi kam shakllangan. Loyihalar va ilmiy asarlarda ta'kidlanishicha, profilaktika inspektorlari faoliyatining samaradorligini oshirish uchun ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari bilan tizimli hamkorlik muhim ahamiyatga ega, chunki ular ijtimoiy tahlillar, xavf faktorlarini aniqlash va profilaktik choralar rejalashtirishda birgalikda harakatlanadi.

Bundan tashqari, amaliyot profilaktika inspektorlarini aniq majburiyatlar bilan ta'minlamaganda, ularning faoliyati profilaktikadan ko'ra jazoni qo'llashga ko'proq yo'naltiriladi — bu esa o'z navbatida bola huquqbuzarliklarining ildiz sabablarini bartaraf etish o'rniga natijani yo'qotishga e'tibor qaratiladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, profilaktika-inspektorlarning vazifalari huquqbuzarlik sabablarini aniqlash, jinoyatchilikka moyillikni kamaytirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish jarayonini ham o'z ichiga olishi kerak.

Shunday ekan, amaliyotda profilaktika inspektorlarining vazifalari profilaktikani yuridik hamda ijtimoiy jihatni birlashtirgan tizimga aylantirilishi lozim.

Bu tizim bolalarning huquqbuzarlikka moyil bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni faqat huquqiy hujjatlar asosida aniqlash bilan cheklanmay, balki bola va oila bilan bevosita muloqot, ijtimoiy tahlil, psixologik ko'mak va jamoatchilik resurslarini ham jalb qilishni o'z ichiga oladi.

Shu ma'noda vazifalar profilaktika inspektorlaridan bola va oila faoliyatini muntazam monitoring qilish, aniqlangan xavf darajalari bo'yicha tezkor chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, maktab va mahalla sub'ektlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishni talab etadi.

Shuningdek, profilaktika inspektorlarining vazifalarini takomillashtirishda fuqarolarni profilaktik tadbirlarga jalb etish mexanizmini rivojlantirish muhimdir: ommaviy ma'rifiy tadbirlar, huquqiy tushuntirishlar, voyaga yetmaganlar ota-onalari bilan ochiq muloqotlar tashkil etish orqali ularning huquqiy ongini oshirish, huquqbuzarlikka yo'l qo'ymaslik bo'yicha jamoatchilik tarafidan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash lozim.

Bu profilaktikaning umumiy va viktimologik yo'nalishlarini birlashtirib, nafaqat javobgarlikni kuchaytiradi, balki oila va jamoa darajasida ijtimoiy nazoratni ham mustahkamlaydi.

Natijada profilaktika inspektorlari faoliyati bolalar huquqlarini himoya qilishning integratsiyalashgan mexanizmiga aylanishi kerak, u nafaqat qonunchilikning ogohlantiruvchi funksiyasini bajarishi, balki ijtimoiy kompleks chora-tadbirlar orqali huquqbuzarlikning ilk bosqichidan oldini olish salohiyatini ham ta'minlashi zarur.

Bu esa amaliyotda profilaktikaning o'ziga xos vazifalari va ularni bajarish rejalari juda aniq va amaliy tarzda belgilangan holda boshqarilishi bilan ta'minlanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlarning salbiy oqibatlari yoshlar orasida jinoyatchilikning keskin ko'payishini, uning uyushgan, qurollangan, shafqatsiz bo'lishini, yoshlarning umumiy jinoyatlari orasida mast va narkotik moddalar ta'sirida sodir etilgan jinoyatlar ulushining ko'payishini, jinoyatlar ishtirokchilari orasida ish va o'qish bilan band bo'lmaganlar hissasining ko'payishini keltirib chiqardi.

Bu esa yoshlar orasida, jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarni va ularning jinoyatchilik holatiga ta'sirini o'rganishni hamda qonunchilik tizimida voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tizimini yanada liberallashtirishni talab qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

2. Таштемиров, А. А. "Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.25 (2023): 32-40.

3. Таштемиров, А. А. "Ҳуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари." So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6.12 (2023): 454-461.

4. Таштемиров, А., and X. Юлдошев. "Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситалари ва блогерлар билан ҳамкорликнинг ўзига хос жиҳатлари." Академические исследования в современной науке 3.17 (2024): 55-61.

5. Таштемиров, А. А. "Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари." World of Science 6.6 (2023): 169-175.

6. Тоштемиров, А. "Киберфирибгарлик билан боғлиқ жиноятларнинг пайдо булиш ва ривожланиш тарихи." Общество и инновации 3 (2022): 11.

7. Таштемиров, А. А., and С. А. Калауов. "Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати." barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali 2.8 (2022): 245-250.

8. Таштемиров, А. А. "Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги." Innovative achievements in science 2025 (2024): 82-90.

9. Таштемиров А. А., Комилов А. М. Ў. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.

10. Tashtemirov, A., and A. Po'latov. "Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari." *Иновационные исследования в науке* 3.1 (2024): 75-78.
11. Таштемиров, А. А. "Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш." *So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi* 6.12 (2023): 552-558.
12. Таштемиров, А. "Кибержиноятчилик ва унинг ўзига хос шаклланиш даврлари." *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 2 (2023): 133-139.
13. Таштемиров, А. А. "Техник криминалистик экспертиза–ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фoш этишнинг асосий омили сифатида." *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali* 2.21 (2023): 12-19.
14. Таштемиров, А., and Ж. Курчибоев. "Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти." *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук* 3.12 (2023): 130-135.
15. Таштемиров А. А. Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни фoш этишда тезкор ходимларнинг терговчи ва суриштирувчилар билан ҳамкорлигининг айрим жиҳатлари // *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 156-164.
16. Таштемиров, А. А. "Психологическая поддержка деятельности инспекторов профилактики в работе с лицами, осужденные к наказанию исправительные работы." *International scientific research conference*. Vol. 3. No. 28. 2024.
17. Таштемиров, А. А. "Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинладиган жазо тизимининг ўзига хослиги." *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук* 2.10 (2022): 42-48.
18. Tashtemirov A. Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo 'yicha sudlar bilan hamkorligining o 'ziga xos xususiyatlari // *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*. – 2024. – Т. 3. – С. 38-42.
19. Tashtemirov A. Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o 'ziga xos xususiyatlari // *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.
20. Tashtemirov, A. "Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash." (2024): 59-61.

21. Таштемиров, А., and А. Хўжамбердиев. "Оила-турмуш муносабатлари доирасидаги ҳуқуқбузарликларнинг турлари ва таснифи." Журнал академических исследований нового Узбекистана 1.6 (2024): 4-12.

22. Aliqulovich T. A. Atxam o'g'li MX Profilaktika inspektorining ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonidagi ishtirokining oziga xos xususiyatlari //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 24. – С. 230-235.